



IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK OF INTERAGENCY COOPERATION IN ENSURING ROAD TRAFFIC SAFETY IN NEW UZBEKISTAN (BASED ON SOCIOLOGICAL SURVEYS)”

Zukhriddin Mukhammadaliyev

Independent Researcher at the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

e-mail: zuxriddin.muxammadaliyev@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal framework, road traffic safety, interagency cooperation, regulatory legal acts, sociological survey, “Vision Zero” concept, legal awareness and legal culture.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article examines road traffic accidents that have occurred in our country over the past five years. It also presents the results of sociological surveys conducted to prevent such incidents. Based on an analysis of the survey findings, practical proposals and recommendations have been developed to prevent human-related road traffic accidents through the effective organization of interagency cooperation, as well as to address existing gaps in national legislation in this area.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA IDORALARARO HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (SOTSIOLOGIK SO‘ROVNOMALAR ASOSIDA)

Zuxriddin Muxammadaliyev

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: zuxriddin.muxammadaliyev@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: huquqiy asoslar, yo‘l harakati xavfsizligi, idoralararo hamkorlik, normativ-huquqiy hujjatlar, sotsiologik so‘rovnoma, “Vision Zero” konsepsiyasi, huquqiy ong va va huquqiy madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda so‘nggi 5 yil davomida sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari o‘rganilib, ularning oldini olish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilgan, o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil etilib, idoralararo hamkorlikni samarali tashkil etish orqali insonlar bilan bog‘liq yo‘l

transport hodisalarining oldini olish, bu boradagi qonunchiligimizda mavjud boʻshliqlarni toʻldirish boʻyicha amaliy taklif va tavsiyaalr ishlab chiqilgan.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ МЕЖВЕДОМСТВЕННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ (НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ОПРОСОВ)

Зухриддин Мухаммадалиев

Независимый соискатель

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

e-mail: zuxriddin.muxammadaliyev@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовые основы, безопасность дорожного движения, межведомственное сотрудничество, нормативно-правовые акты, социологический опрос, концепция «Vision Zero», правосознание и правовая культура.

Аннотация: В данной статье изучены дорожно-транспортные происшествия, произошедшие в нашей стране за последние пять лет. Также представлены результаты социологических опросов, проведённых с целью предотвращения подобных происшествий. На основе анализа полученных данных разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на предупреждение дорожно-транспортных происшествий, связанных с человеческим фактором, путём эффективной организatsii межведомственного сотрудничества, а также на устранение существующих пробелов в natsionalном законодательстве в данной сфере.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 09-iyul kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda “Birinchii navbatda yo‘l-transport hodisalari. O‘tgan yili 9 ming 364 ta shunday hodisa sodir bo‘lgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Eng achinarlisi, 2 ming 203 nafar odam halok bo‘lgan. Har to‘rtinchi avariya da bir kishi yoki kuniga o‘rtacha olti kishi vafot etayotgani barchani qattiq tashvishga solishi kerak” deb, bejiz ta‘kidlamagan edilar.

Bugungi kunda jahon miqyosida transport vositalarining keskin ko‘payishi, shaharlashuv jarayonlarining jadallashishi, yo‘l infratuzilmalariga bo‘lgan talabning ortishi va inson omili bilan bog‘liq xatarlar yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini ilmiy asosda shakllantirish va

samarali tasniflash zaruratini keskin oshirmoqda. Zero, BMT va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha bir milliondan ziyod inson yo‘l-transport hodisalari qurboniga aylanadi, bu esa global miqyosdagi ijtimoiy muammodir.

Ushbu muammolarni o‘rganish, har taraflama taxlil olib borish va bu borada fuqarolar fikr va muloxazalarini o‘rganish zarur bo‘ladi.

Tadqiqot ishi doirasida Namangan viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi xodimlari bilan mavjud muammolar yuzasidan sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan so‘rovnomada idoralararo hamkorlikni rivojlantirish orqali yo‘l-transport xodisalarining asosiy sabablari, ularning kelib chiqishi, profilaktika qilish, yo‘lardagi holatlar (tirbandlik, yo‘llardagi notekisliklar, YTH va boshqalar), OAVdagi chiqishlar, haydovchi va piyodalarning xatti-harakatlari va munosabatlari hamda mavju muammolarni bartaraf etish bo‘yicha xodimlarning takliflari o‘rganildi.

So‘rovnoma ishi doirasida jami 450 nafar xodimlar ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 20-25 yosh oralig‘idagilar 180 nafarni, 25-40 yoshdagilar 270 nafarni tashkil etdi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Tizimli yondashuvga keng qo‘llab-quvvatlash orqali YTHlarni oldini olish:

78% respondentlar yo‘l harakati xavfsizligi inson hayoti va mulkini himoya qiluvchi kompleks tizim deb hisoblagan. 74% esa bu tizim ta’lim, ma’rifat va jamoatchilik ishtirokini ham qamrab olishi kerak, deb topgan.

2. Inson omili va huquqiy ongning muhimligi tan olingan:

81% respondentlar samaradorlik inson omili, huquqiy ong va sog‘lom ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini bildirgan. Bu esa huquqiy madaniyatni yuksaltirishni targ‘ib qilish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Hamkorlik – institutsional va axborot darajasida:

70% va undan ortiq respondentlar idoralararo hamkorlik huquqiy, institutsional va raqamli infratuzilma asosida yuritilishi zarurligini bildirgan. Bu esa raqamlashtirish va integratsiya talabini anglatadi.

4. Qonunchilik tashabbuslariga ijobiy munosabat:

68–75% atrofidagi respondentlar “Yo‘l harakati to‘g‘risida” gi qonunda hamkorlik bo‘limi, jamoat xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun, hamda milliy komissiya tuzish takliflarini qo‘llab-quvvatlagan.

5. Ta’lim va ma’rifatga katta e’tibor:

80% respondentlar maktab va OTMlarda “Yo‘l harakati madaniyati” fanini joriy etishni muhim deb hisoblagan. Bu kelajak avlodni huquqiy ong bilan tarbiyalash ehtiyoji mavjudligini tasdiqlaydi.

6. Zamonaviy yondashuvlarga tayyorlik:


77% respondentlar Shvetsariyaning “Vision Zero” kabi xalqaro konsepsiyalarni milliy strategiyalarga asos qilishni qo‘llab-quvvatlagan. Shuningdek, 79% axborot platformasi yaratilishini to‘g‘ri deb topdi.

7. Jamoatchilik ishtiroki va raqamli yechimlarga ishonch:

72% respondentlar xavfli nuqtalar haqida ma‘lumot beruvchi “Community Safety Map” platformalarini ma‘qullagan. 71% esa “Yo‘l harakati xavfsizligi instituti” tashkil etilishini qo‘llab-quvvatladi.

8. Faoliyat samaradorligini baholash – KPI orqali baholash:

66% respondent yo‘l transport xodisalarining oldini olishda idoralar faoliyatini KPI va maxsus indekslar asosida baholanishi lozim, deb hisobladi.



So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning katta qismi joriy choralarni samarali yoki qisman samarali deb hisobladi, bu esa hozirda tizim ma‘lum darajada profilaktik ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kichik bir qismi choralarni samarasiz deb baholagan va javob berishga qiynalغانlar ham mavjud, bu esa jamiyatda ushbu masala bo‘yicha yetarlicha ma‘lumot yoki shaxsiy tajriba yetishmasligidan dalolat beradi.

Tadqiqot ishi doirasida yurtimizda amaldagi qonunchilik hujjatlari: “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun, “Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro huquq normalari asosida boyitish, jumladan BMTning Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan o‘n yillik harakat dasturi, Daniya, Finlyandiya, Germaniyada qabul qilingan Vision Zero (hech qanday o‘lim – maqsad sifatida) konsepsiyalari, WHO (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) va UNESCAP (Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya) tavsiyalaridan keng foydalanish samarali yechim ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘tkazilgan so‘rov natijalariga asosan respondentlar yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda quyidagi choralarni muhim-deb, biladi:

1. YHX tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish – sun‘iy intellekt, AI, aqlli svetaforlar orqali chorahalardagi tirbandliklarni hisobga olib, onlayn nazorat qilish va boshqalar.
2. Ta‘lim muassasalarida yo‘l xavfsizligi darslarini joriy etish – maktabgacha va maktab ta‘limidagi qisqa ma‘ruzalar yetarli bo‘lmay, ularni amaliyot bilan bog‘lash o‘z samarasini beradi.
3. Fuqarolar tomonidan murojaat qilish va mas‘ullarning javobgarligini belgilash – yo‘llardagi chuqurliklar, tirbandlik va YTHlar to‘g‘risida axborot berish (my.gov.uz, avtovokzal.uz va boshqalar orqali) va murojlat yuzasidan ariza muallifiga o‘z vaqtida javob berish.
4. Daniya, Finlyandiya, Germaniyada qabul qilingan Vision Zero (hech qanday o‘lim – maqsad sifatida) konsepsiyalari, WHO (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) va UNESCAP (Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya) tavsiyalaridan keng foydalangan holda qonunchiligimizda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish.
5. OAVda YTHlarni oldini olish bo‘yicha qisqa roliklar, ijtimoiy reklama va chuqur ta‘sirli chiqishlarni berib borishni majburiy etib belgilash.

Shuningdek ushbu so‘rovnoma taxliliga ko‘ra haydovchilarning ota-onalari bilan o‘zaro muloqoti, transport madaniyatiga beparvoligi, farzandiga haydovchilikka oid masalalarda to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq bermasligi YTHlarning oldini olishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun profilaktik tadbirlar faqat haydovchi bilan emas, balki oila – maktab – jamiyatni qamrab olishi va ushbu tizim birgalikda tizimli ravishda ishlashi lozim.

So‘rov natijalariga asosan, yuqoridagi amaliy taklif va tavsiyalarni amalga oshirish orqali YTHlarning oldini olish mumkinligi va bu o‘zining ijobiy samarasini berishi asoslantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/8310>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/30/road-unsafety/>
3. <https://lex.uz/docs/-6764454>
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero
5. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // <https://www.lex.uz/acts/24741>
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасини илмий-методик таъминлаш, йўлларда эксплуатация-монтаж фаолиятини тартибга солиш ҳамда «Хавфсиз йўл» индексини юритиш амалиётини жорий этиш тўғрисида”ги қарори // <https://lex.uz/ru/docs/6136750>
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чоратadbirlari тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5749291>
8. Resolution adopted by the General Assembly on 31 August 2020 // <https://docs.un.org/-en/A/RES/74/299>
9. https://ru.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero